

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KREATIV PEDAGOGIKA FANINING O'RNI.

Muhiddinova Nafisa Safaraliyevna

Pedagogika fani o'qituvchisi

International School of Finance Technology and Science instituti o'qituvchisi.

nafisaabdukadirova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11496792>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni kreativ pedagogikaning nazariy asoslari, tamoyillari, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish orqali ularda o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini samarali tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'rni kabilari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, individuallik, ta'lim texnologiyalari, kreativ yondashuv, ijodiy intilish, kreativ faollik.

THE ROLE OF CREATIVE PEDAGOGICAL SCIENCE IN THE IMPROVEMENT OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES.

Abstract. In this article, the role of teachers' motivation is the extent to which activity is necessary for students to acquire knowledge, skills, and competencies, the interaction and activity of teachers and students in the pedagogical process, and their interaction, analysis is described.

Key words: creative, individuality, educational technologies, creative approach, creative aspiration, creative activity.

РОЛЬ ТВОРЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Аннотация. В данной статье путем ознакомления студентов с теоретическими основами излагаются принципы творческой педагогики, методами, средствами и технологиями, развивающими качества творчества педагогов, современное образование в эффективной организации учебного и духовно-воспитательного трудового процесса, также объясняется роль современных образовательных-технологий.

Ключевые слова: креатив, индивидуальность, образовательные технологии, творческий подход, творческое стремление, творческая деятельность.

Kirish. Ko'z oldingizga ta'lim jarayonini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni o'ziga xos va qiziqarli tarzda jo'shqinlik, zavq-u shavq bilan tashkil etayotgan o'qituvchini keltiring. U, garchi, o'zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasa-da, biroq, kreativlikni namoyon etuvchi ta'lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo'llayotganligidan o'zi ham mamnun, qolaversa, talabalarning minnatdor bo'lishlariga erishmoqda. Talabalarda kreativlik sifat va ko'nikmalarining o'zlashtirilishida, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishda "Kreativ pedagogika" muhim o'rin tutadi.

Kreativ pedagogika – pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish, talabalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashuv o'quv topshiriqlarini bajarishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ilgari surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritishni, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganishni o'z zimmasiga oladi. O'qituvchi ta'lim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi. Kreativ pedagogika o'z zimmasiga o'quv modulini o'qitishning taktika va strategiyalarini belgilash, mos pedagogik va psixologik tashxis vositalarini tanlash, ta'lim mazmuni, o'quv rejalari va dasturlarini saralash, ta'lim oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash vazifalarni oladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

-oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

-oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

-oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

-talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

-mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;

-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbir etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

1. O'qituvchilarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarini tadbiiq etish;
2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladigan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi o'qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi.

O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab toppish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kretiv layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativ maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- **Muammoli tamoyili.**

Muammoli tamoyilidan foydalanish pedagogik faoliyat uchun yangilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoli xarakterga ega bo'lib, u muammoning nostandart yechimini topishdan iborat. Pedagogik amaliyotda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini muammolilik tamoyiliga muvofiq rivojlantirish ijodiy muammoli vazifalarda namoyon bo'ladi, masalan, "Gipotezani ilgari suring va uni sinab ko'rish rejasini tuzing", "Dastlabki natijani baholash...", "O'quv materialini boshqacha taqdim eting ..." va hokazo.

-**Ijodiy yo'nalish tamoyili.**

Bu tamoyil nafaqat reproduktiv, balki ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Kreativlikni rivojlantirish faqat maqsadli xarakterga ega bo'lmasligi kerak, ya'ni erishilayotgan natija amaliyot so'ngida natijaga erishish degan fikrdan yiroq bo'lishi lozim. Bu holatda talaba topshiriqlarni tez va hech qanday hissiyotlarsiz bajarishlari kerak. Chunki bu holat mashg'ulot sifatiga, diagnostika natijalariga, umuman, barcha tajriba-sinov ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar kreativlikning rivojlanishi bosqichli xususiyatga ega bo'lib, har bir vazifa yoki faoliyat turi sinovning keyingi bosqichi sifatida qaralmasdan, balki o'z-o'zini sinab ko'rish, o'zini o'zi anglash va qiziqarli faoliyat uchun imkoniyat sifatida yo'naltirilgan bo'lsa, u holda bajarilayotgan ish yuqori sifatli va o'rganilayotgan konsepsiya ko'rsatkichlari o'sish darajasida bo'ladi.

-**Butunlilik va izchillik tamoyili.**

Bu tamoyil ijodkorlikni rivojlantirish dasturi tuzilmasi yaxlitlik, izchillik, to'liqlilikni talab qiladi. Faqat shu holatda qo'yilgan maqsadga erishish uchun vosita va usullarni tanlashning maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Kreativlikni bo'lajak o'qituvchining yaxlit qiyofasiga hamroh bo'ladigan sifatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

-Individuallashtirish tamoyili.

Ushbu tamoyilning asosiy jihati har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos trayektoriyasini va ruhiy jarayonlarning ishlash xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Shunda dasturning har bir ishtirokchisining individual natijasi, shaxsiy xususiyatlar sifatida kreativlikning shakllanish darajasiga mos keladigan ijodiy yutug'i bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda ta'lim va tarbiya jarayonlarining sifatli, samarali tashkil etilishi ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Mazkur zaruriyatning qondirilishi pedagoglarning yuqori darajada kasbiy kompetentlik, mahorat va malakalarga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarning mutaxassis sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko'nikma, malakalarini faol o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi. "Kreativ pedagogika" fanining asoslari zamonaviy ta'lim texnologiyalarni takomillashtirishga, talabalar va pedagoglarda kreativlik sifatleri va ijoiy faoliyat ko'rsatish malakalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston. Toshkent, 2017. 45-bet.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonosti / Ucheb.posobie. – M.: Direkt- Media, 2014. – 1229 s.
4. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posboie. – Kirov: ANOO "Mejreginal'nyy TSITO", 2013. – 212 s.
5. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – O'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.